Yashil iqtisodiyotga o'tish ekologik barqarorlikning muhim omilidir	1014
Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich	
Strategik boshqaruv hisobini tashkil etish asoslari va tamoyillarini takomillashtirish.....	1017
Pardayeva Shahnoza Abdinabiyevna	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1022
Пулатова Сурайё Юлдашевна	



Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida oilaviy korxonalarining xizmatlar ko'rsatish sohasidagi o'rni va funksiyalari.....	1026
Tog'ayeva Dilnoza Azamatovna	
Совершенствование методологии исследования демографических процессов.....	1031
Тула Нодирбек Баходир угли	
Инновационные технологии в сфере страхования.....	1037
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
Iqtisodiyotni innovatsion isloh qilish sharoitida yer hisobini yuritishning ahamiyati.....	1042
Hojiyev Qo'chqor Mamadiyorovich	
Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni takomillashtirish.....	1047
Sherqulov Nodir Erkin o'g'li	
Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении.....	1052
Гулноза Тохиروна Самиева	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari.....	1057
Majidov Nizomjon	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari.....	1064
Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
Badalov Jamshid Jamolovich	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
Shirinov Sabir Erkinovich	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромов Ханифа Одилловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



SANOAT KORXONALARINI KREDITLASH AMALIYOTINING ZAMONAVIY HOLATI

Kamalova Jamila
Toshkent moliya instituti



Annotatsiya: Tijorat banklarining sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining nazariy asoslari, tijorat banklari tomonidan sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlari tadqiq qilingan va ularning amaliy ahamiyatiga baho berilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, loyihalarni moliyalashtirish, kredit portfeli, sanoat korxonalari.

Abstract: The theoretical foundations of commercial banks' practice of lending to industrial enterprises, the scientific and theoretical views on improving the practice of lending to industrial enterprises by commercial banks were researched and their practical significance was evaluated.

Key words: commercial banks, project financing, loan portfolio, industrial enterprises.

Аннотация: Исследованы теоретические основы практики кредитования промышленных предприятий коммерческими банками, научно-теоретические взгляды на совершенствование практики кредитования промышленных предприятий коммерческими банками и оценена их практическая значимость.

Ключевые слова: коммерческие банки, проектное финансирование, кредитный портфель, промышленные предприятия.

KIRISH

Jahonda iqtisodiy o'sishning sekinlashuvi, mineral, xom-ashyo va energiya resurslari narxining o'sishi, global transport-logistika tizimidagi uzilishlar, sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi, inflyatsion kutilmalar va narxlar nobarqarorligi sharoitida sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish, qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish, energiya va resurs tejamkor texnologiyalarni qo'llash orqali sanoat mahsulotlari taklifini oshirish va munosib ish joylarini yaratish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra "dunyo mamlakatlarida inflyatsiyani pasaytirish maqsadida amalga oshirilayotgan restriksion pul-kredit siyosati oqibatida global iqtisodiy o'sish 2022 yildagi 3,1 foizdan 2023-yilda 2,1 foizgacha sekinlashishi kutilmoqda". Bu jarayonlar global darajada sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda fiskal va moliyaviy rag'batlantirish instrumentlari samaradorligini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatga asoslangan loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish, investitsiya loyihalarini kreditlashda risklarni diversifikatsiya qilish va sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklari tomonidan sanoat korxonalarini kreditlash, sanoat korxonalarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va banklarda kreditlash jarayonini tashkil etishning nazariy-amaliy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlar J. Sinki, U. Soto, J. Gudl, E. Xin, M. Abbot, T. Didier, D. Fantazzini, M. Vayn, R. Zang va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari N. Valenseva, G. Panova, K. Totmyanina, V. Kayukov, A. Kayukov, O. Lavrushin, T. Belyakov, V. Usoskin va boshqalar ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

G. Panova o'zining monografik tadqiqotiga asoslangan holda, tijorat banklarining kreditlash salohiyati bevosita ular depozit bazasining yetariligi bilan bog'liq, degan xulosaga keldi. G. Panova bu yerda depozitlar deganda muddatli va jamg'arma depozitlarini nazarda tutgan. Chunki, xalqaro bank amaliyotida banklarning



aktiv operatsiyalarini moliyalashtirishning asosiy manbai – bu muddatli va jamg'arma depozitlardir, tranzaksion (talab qilib olinuvchi) depozitlar esa, resurs manbai hisoblanmaydi. Ammo, respublikamizda tijorat banklari tranzaksion depozitlardan kreditlar berishda resurs manbai sifatida foydalanadi.

J. Sinkining xulosasiga ko'ra, kredit oluvchi kompaniyaning faoliyati va menejmentining samaradorligini to'g'ri baholash banklarning kredit bo'limi xizmatchilarining muhim funksiyalaridan biri hisoblanadi.

Haqiqatdan ham, bank kreditlarining qaytaruvchanlik darajasini oshirish bevosita kredit oluvchi kompaniya pul oqimining barqarorligiga bog'liq. O'z navbatida, kompaniya pul oqimining barqarorligi menejmentning samaradorligiga bog'liq.

Korxonalarning moliyaviy barqarorligi, likvidligini mavjud talablar darajasida bo'lishi korporativ menejmentning takomillashganligiga bog'liq. Xususan, respublikamiz korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxi salmog'i ularni sotishdan olingan tushum hajmida yuqori bo'lib, pul mablag'larining salmog'i korxonalar joriy aktivlari hajmida past ekanligi, korxonalarda debitorlik qarzdorliklarning aylanish tezligini talab darajasida emasligi, aktivlarning rentabellik darajasini past ekanligi korporativ menejmentning samaradorligini past ekanligidan dalolat beradi.

V. Kayukov va A. Kayukovlarning xulosasiga ko'ra, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkam qilish, banklarning aktiv va passivlarining hajmi va muddatiga ko'ra mutanosibligini ta'minlash, sanoat korxonalarini kreditlash mexanizmini takomillashtirishning zaruriy sharti hisoblanadi. V. Kayukov va A. Kayukovlarning yuqoridagi fikrlari mamlakatimiz tijorat banklarining moliyaviy resurslarining barqarorligini ta'minlash jihatidan amaliy ahamiyatga ega. Chunki, respublika banklarida resurslar defitsiti muammosi mavjud.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston bank tizimida sanoat korxonalarini kreditlashni tashkil etish va uni amalga oshirish, shuningdek ushbu yo'nalishni rivojlantirish uchun bo'yicha keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ilohotlar, sanoat korxonalariga berilayotgan imtiyozlar o'zining tegishli samarasini bermoqda. O'zbekiston tijorat banklarining kredit portfeli tarmoq tarkibida sanoat tarmog'iga ajratilgan kreditlar ulushi so'nggi yillarda yuqori samoqni egallab kelmoqda. Buni qo'yidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

1-jadval: O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining 2018-2022-yillarda tarmoqlar kesimidagi tarkibi¹ (1-yanvar holatiga, foiz hisobida)

Tarmoqlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Sanoat	39,84	35,75	36,89	36,04	32,47
Qishloq xo'jaligi	5,63	8,13	10,14	10,73	10,79
Qurilish	3,51	2,80	2,66	2,84	2,67
Savdo va umumiy xizmat	6,44	6,84	7,19	8,40	7,41
Transport va kommunikatsiya	12,49	11,11	9,61	8,80	7,61
Moddiy-texnika ta'minoti	1,64	1,56	1,43	1,17	0,99
Uy-joy kommunal xo'jaligi	1,09	1,19	1,36	0,70	0,48
Jismoniy shaxslar	14,59	18,87	19,82	21,29	25,88
Boshqa tarmoqlar	14,76	13,74	10,90	10,03	11,70
Kreditlar - jami	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining tarmoq tarkibida 2018-2022-yillarda nisbatan eng yuqori salmoqni sanoat tarmog'iga berilgan kreditlar egallamoqda. Respublikamiz tijorat banklari kreditlarining tarmoq tarkibida 2018-2022-yillarda salmog'iga ko'ra ikkinchi o'rinni qishloq xo'jaligiga berilgan kreditlar egalladi (jismoniy shaxslarga ajratilgankreditlar bundan mustasno). Asaka-bank kredit portfeli tarmoq tarkibiga quyidagi jadval ma'lumotlari orqali baho berishimiz mumkin.

¹ Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari (www.cbu.uz) asosida tuzilgan.



2-jadval: “Asakabank” aksiyadorlik jamiyati kredit portfelining 2018-2022-yillarda tarmoqlar kesimidagi tarkibi² (1-yanvar holatiga, foiz hisobida)

Tarmoqlar	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y
Sanoat	71,92	62,79	68,22	70,62	67,24
Qishloq xo'jaligi	5,28	6,78	5,53	4,29	4,02
Transport va kommunikatsiya	0,63	1,20	1,94	1,82	1,75
Qurilish	7,06	1,18	1,18	1,28	1,00
Savdo va umumiy xizmat	3,22	3,87	4,42	4,95	4,52
Moddiy-texnika ta'minoti	0,54	0,01	0,01	0,00	0,00
Uy-joy kommunal xo'jaligi	0,26	0,46	0,35	0,37	0,35
Boshqa tarmoqlar va sohalar (shu jumladan jismoniy shaxslar)	11,09	23,71	18,35	16,67	21,12
Jami	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2017-2022-yillarda Asakabank AJning kredit portfelida sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning ulushi 60 foizdan yuqori bo'lgan. Bu esa, Asakabank AJda kredit portfelining diversifikatsiya darajasini juda past ekanligini ko'rsatadi. Taqqoslash sifatida “O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” AJ kredit portfelining tarmoq tarkibiga quyidagi jadval ma'lumotlari orqali baho berishimiz mumkin.

3-jadval: “O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” aksiyadorlik jamiyati kredit portfelining 2018-2022 yillarda tarmoqlar kesimidagi tarkibi³ (1 yanvar holatiga, foiz hisobida)

Tarmoqlar	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y
Sanoat	22,21	27,41	31,86	29,67	31,52
Qishloq xo'jaligi	2,99	5,07	4,91	3,75	3,12
Transport va kommunikatsiya	35,56	32,04	28,61	26,90	23,25
Qurilish	2,13	2,36	1,78	2,17	1,79
Savdo va umumiy xizmat	3,53	2,92	3,08	5,36	5,30
Moddiy-texnika ta'minoti	0,25	0,39	0,30	0,62	0,25
Uy-joy kommunal xo'jaligi	1,74	1,94	3,29	0,76	0,64
Boshqa tarmoqlar va sohalar (shu jumladan jismoniy shaxslar)	31,59	27,87	26,17	30,77	34,13
Jami	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, “O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” AJ kredit portfelining tarmoq tarkibida sanoatning va transport va kommunikatsiyaning salmog'i 2018-2022-yillarda yuqori bo'lgan. “O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” AJ kredit portfelining tarmoq tarkibida moddiy-texnika ta'minoti va uy-joy kommunal xo'jaligiga berilgan kreditlarning salmog'i 2018-2022-yillarda juda kichik bo'lgan. Lekin shuni ta'kidlash lozimki respublika tijorat banklarining sanoat korxonalariga ajratgan kreditlari ulushi (32%), “O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” AJning kredit portfelidagi sanoat tarmog'iga ajratilgan kreditlash ulushi bilan (31,52%) mos keladi. Quyidagi jadvalda “O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” AJ da sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning tarmoq tarkibi xususida ma'lumotlar keltirilgan.

Tijorat banklarining sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan quyidagi dolzarb muammolar aniqlangan:

- sanoat korxonalarini kreditlash jarayonidagi kredit riski darajasining yuqori ekanligi (kredit portfelida muddati o'tgan va muammoli qarzdorliklar miqdorining yuqori ekanligi; kreditlar bo'yicha yaratiladigan zahiralarning jami aktivlarga nisbatan darajasining belgilangan darajadan yuqori ekanligi; tijorat banklarida kredit portfeli tarmoqlar va sohalar bo'yicha diversifikatsiyalanmagan);

² Jadval muallif tomonidan “Asakabank” aksiyadorlik jamiyatining yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

³ Jadval muallif tomonidan “O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” aksiyadorlik jamiyatining yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.



- tijorat banklari tomonidan sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning daromadlilik darajasini barqaror emasligi (tijorat banklarining sanoat korxonalariga berilgan kreditlarining o'sish sur'ati bilan ushbu kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikning ta'minlanmaganligi; kreditlar bo'yicha zaxira ajratmalari darajasini yuqori ekanligi; davlat dasturlari doirasida berilgan imtiyozli kreditlar miqdorining katta ekanligi);
- tijorat banklarining resurs bazasini barqaror emasligi (tijorat banklari depozitlarining umumiy hajmida tranzaksiya depozitlarning salmog'ini yuqori ekanligi; boshqa banklardan jalb qilingan kreditlarning passivlar hajmidagi salmog'ining yuqori ekanligi).

Respublikamiz tijorat banklarining sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki" aksiyadorlik jamiyati va "Asakabank" aksiyadorlik jamiyati misolidagi tahlili ko'rsatdiki, birinchidan, 2018-2022-yillarda "Asakabank"ning kredit portfelida sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning ulushini 60 foizdan yuqori bo'lganligi "Asakabank"da kredit portfelining diversifikatsiya darajasini juda past ekanligini ko'rsatadi; ikkinchidan, "Asakabank"da sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning miqdori 2017-2022-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgani holda, sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning daromadlilik darajasi 2022-yilda 2017-yilga nisbatan 2,1 foizli punktga oshgan; uchinchidan, "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki" aksiyadorlik jamiyatida sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning miqdori 2018-2022-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgani holda, sanoat korxonalariga berilgan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlikning darajasini 2021-yilda 2018-yilga nisbatan yuqori sur'atda o'sganligi sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi; to'rtinchidan, "Asakabank"da sanoat korxonalariga berilgan kreditlar bo'yicha zaxira ajratmalarining darajasi 2022-yilda 2017-yilga nisbatan 1,3 foizli punktga ortgan; beshinchidan, "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki" aksiyadorlik jamiyatida sanoat korxonalariga berilgan kreditlar bo'yicha zaxira ajratmalarining darajasi 2017-2021-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgani holda 2021-yilda 2017-yilga nisbatan yuqori sur'atda (2,2 f.p.) o'sgan; oltinchidan, TIF Milliy bankining boshqa banklardan olgan kreditlari miqdorini 2022 yilda 2018 yilga nisbatan sezilarli darajada oshganligi uning resurs bazasini mustahkamlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Лаврушин О.И. Банковское дело. Учебник. под ред. Проф. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2016 г. – 800 с.;
2. Бровкина Н.Е. Организация отдельных видов кредита. Банковское дело Москва: КНОРУС, 2016 г. – 800 с.
3. Беляков Т. Минные поля проектного финансирования: Пособие по выживанию для кредитных работников и инвесторов. – Москва: М.:Алпина Бизнес Букс, 2009 г – 221 с.
4. Синки мл. Д. Ф. Управление финансами в коммерческом банке: пер. с англ. – М: Саталлахи. 1997 г. – С.182.
5. Hess G., Morris C. The Long-Run Costs of Moderate Inflation / Federal Reserve Bank of Kansas City Economic Review. 1996y. Second Quarter – P. 71-88.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021-yil yakunlari bo'yicha faoliyati to'g'risidagi hisobot //www.cbu.uz
7. Hoshimov, J. (2022). Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda aqsh va xitoy tajribasi: https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss5/a61. Economics and education, 23(5), 363-369.
8. Хошимов, Жахонгир. "Прямые снижение страновых рисков при привлечении прямых иностранных инвестиций." Ижтимоий гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально гуманитарных наук/ Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 3.S/2 (2023): 149-155.
9. Khoshimov, J. (2023). Overseas experience in the development of the life insurance industry. Molodye uchenye, 1(20), 65-69.
10. Hoshimov, Jahongir. "Inveestitsion muhit jozibadorligini oshirishda xitoy va singapur tajribasi." Iqtisodiyot va ta'lim 24.2 (2023): 369-373.
11. Ravshanbek O'g'li H. J. The Existing Problems In Attracting Foreign Investment To The National Economy And Ways To Overcome Them //The American Journal of Management and Economics Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 09. – S. 53-59.
12. Xashimov J. Iqtisodiyotga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hajmini oshirish yo'llari //Economics and Innovative Technologies. – 2023. – T. 11. – №. 4. – S. 93-99.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.